“TAZKIRAI QAYYUMIY” ASARINING QO‘LYOZMA VA NASHRI O‘RTASIDAGI MATNIY-QIYOSIY TADQIQI

Axmadaliyev Lochinbek Maxamadyusuf o‘g‘li, O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti.
e-mail: nihcol95@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola Po‘latjon Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” asaridan o‘rin olgan 35-66-fiqralarning tazkira qo‘lyozma va nashri o‘rtasidagi matniy-qiyosiy tadqiqiga bag‘ishlangan. Qiyoslash tazkiraning qo‘lyozma va nashr variantlari o‘rtasida amalga oshirildi. Tabdil va nashrdagi imloviy o‘zgarishlar, uslubiy g‘alizliklar, xato berilgan ma’lumotlar, tabdilda tushirib qoldirilgan o‘rinlar, akademik Aziz Qayumov tomonidan qo‘shib ketilgan ma’lumotlar aniqlandi.

Kalit so‘zlar: tazkira, fiqra, matniy-qiyosiy tadqiq, qo‘lyozma, nashr, tabdil, litografiya, avtograf.

СРАВНИТЕЛЬНО-ТЕКСТУАЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ РУКОПИСИ И ОПУБЛИКОВАННОЙ ВЕРСИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ТАЗКИРАИ КАЙЮМИ»

Аннотация. Данная статья посвящена текстуально-сопоставительному изучению стихов, посвященных 35-66 фикрасу из “Тазкираи Кайюми” Полатджона Кайюми. Проведено сравнение рукописной и опубликованной версий тазкиры. Выявлены орфографические изменения в переводе и публикации, стилистические ошибки, ошибочная информация, пропущенные места в переводе, а также информация, добавленная академиком Азизом Каюмовым.

Ключевые слова: тазкира, фикра, тексто-сопоставительное исследование, рукопись, публикация, перевод, литография, автограф.

COMPARATIVE TEXTUAL STUDY OF THE MANUSCRIPT AND THE PUBLISHED VERSION OF THE WORK “TAZKIRAI KAYUMI”

Annotation. This article is devoted to the textual-comparative study of the verses dedicated to 35-66-fikras’ from Polatjon Kayyumi’s “Tazkirai Kayyumi”. A comparison was made between the manuscript and published versions of the tazkira. Spelling changes in the translation and publication, stylistic errors, erroneous information, omitted places in the translation, and information added by academician Aziz Kayumov were identified.

Keywords: tazkira, fiqra, textual-comparative study, manuscript, publication, translation, lithography, autograph.

Kirish. Tazkiranavislik o‘zbek adabiyoti tarixining muhim bir qismini tashkil etadi. Ayni paytda Sharq adabiyotida tazkiranavislik uzoq an’anaga ega bo‘lib, turli davrlar silsilasida tadrijiy takomil hosil qilgan. “Tazkirayi Qayyumiy” mumtoz adabiyotimizning XI-XII asrlaridan yashab faoliyat yuritgan shoir-u adiblarimizdan tortib to tazkira yozib tugallanayotgan vaqt (1960-yil aprel)da barhayot bo‘lgan, muallifga zamondosh ijodkorlargacha, jami 324 nafar qalam ahllari hamda ularning samarali va mazmundor ijodlari to‘g‘risida ma’lumot beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tazkiradan o‘rin olgan Mansur, Mahviy, Solih, Gadoiy, G‘oziy, Munis, Nizomiy, Amiriy, Qiyosiy, Ma’dan, Ravnaq, Akmal, Nodir, Fazliy, Nola, Sharifiy, Gulxaniy, Mahfiy, Kaltatoyi, Ogahiy, Nodira, Mahzuna, Uvaysiy, Nozik, Xon, Dilovar, Jaloliy, Azimiy, Majzub, Komil, Rojiy, Vola, Biymiy kabi ijodkorlar fiqralarining tazkira qo‘lyozma va nashri o‘rtasidagi tafovutlar kontekstual, qiyosiy tipologik, sistem-struktural metodlar asosida yoritishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. Olingan natijalar quyidagicha klassifikatsiya qilindi:

1. Tabdilda tushirib qoldirilgan ma’lumotlar.
2. Tazkirada xato berilgan ma’lumotlar.
3. Tabdilda xato berilgan ma’lumotlar.
4. Akademik Azizxon Qayumov qo‘shib ketgan ma’lumot.
5. Qo‘lyozma va nashrdagi uslubiy g‘alizliklar.
6. Tabdil va nashrdagi imloviy farqlar.
7. Tazkira yozilishida tushirib qoldirilgan misra, bayt va bandlar.

Tabdilda tushirib qoldirilgan ma’lumotlar

1. Munisning Alisher Navoiy g‘azaliga nazira tarzida yozgan “kerakmasmu sanga” radifli g‘azali 3-bayti nashrga kirmay qolgan (№ 38, 88. № 38, 103):

Ja’m etib, o‘tlug‘ ko‘ngullarni muqayyad aylading,
Halqayi zulfi parishoning kerakmasmu sanga?

2. Nizomiy Xo‘qandiyning “Tursam bu sahar olama xush is sochilibdur…” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalining quyidagi bayti nashrdan tushib qolgan:

Bu subhi samo sahnida bir fayz urub barq,
Oshiq dilining iqdasi bir dam yochilibdur. (№ 39, 90. № 39, 105).

3. Ma’danning “Qorig‘an chog‘da tushdi boshima ishq a’lolasi…” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalining 2-bayti qolib ketgan:

Ko‘rib pech-u dilimg‘a, ey do‘stlar, mendin savol etmong,
Ulus ovorasiman, so‘rmongizlar ishq savdosi. (№ 42, 101. № 42, 115).

4. Akmal I.ning muxammasidan bir bandini berishda quyidagi misra tushib qolgan. Natijada muxammas tashqi ko‘rinishidan to‘rtlikka o‘xshab qolgan:

“Tang dastlikdan manga vasli muyassar bo‘lmodi” (№ 44, 107. № 44, 123).

5. Nolaning asl ismi: “nomi Sayyidg‘ozixondur” (№ 47,117. № 47, 133).

6. Gulxaniyning Umarxon tomonidan o‘ldirilganlik-o‘ldirilmaganlik masalasidagi mazkur fikr: “Zamon” radifli tojik tilida yozilgan g‘azali Umarxonga og‘ir kelib, bu na’s badfe’ etishga, vujudonsizliq etgan bo‘lsamukin?” (№ 49, 123. № 49, 139).

7. Umarxonni mulla Ernazar domullani o‘ldirtirgan degan ma’lumotni berishda: “Tarixda shoir mulla Ernazar domullani birga qo‘shub, Rajab qo‘shbegi degan bir tojik sarkardani To‘raqo‘rg‘ong‘a hokim etib yuborib, Sirdaryoga borganda 66 yoshdagi bu keksa kishining o‘ldirib, daryoga tashlab yuborgani ko‘rinadur”, -deydi. Nashrda “66 yoshdagi bu keksa kishining” jumlasi tushib qolgan (№ 49, 123. № 49, 139).

8. Nodiraning onasi haqidagi fakt: “Andijon shaharida Oyshaxonim nomli ko‘cha bor emish. Bu esa shoira Nodiraning onasi bo‘lur emish” (№ 53, 133. № 53, 149).

9. Nodira vafoti: “Vafoti Nodira hijriy 1258nchi yilda” (№ 53, 134. № 53, 151).

10. Mahzuna fiqrasidagi ushbu fakt: “Mirzo oxund devon tarix hijriy ila 1225nchi (yilda) nodiraning yordami ila bino etilmishdur” (№ 54, 139. № 54, 156).

11. Mahzuna va Fazliy munozarasidagi “Besan” “o‘shal siz” degandurki, bu so‘z lutfi latif bo‘lub, kinoya ila o‘pmoq istashdur” jumlasi nashrda “Besan bo‘lub, kinoya ila o‘pmoq istashdur” holiga kelib qolgan. Ko‘rinadiki, nashrda mazkur jumlaning birinchi qismi tushib qolgan (№ 54, 142. № 54, 159).

12. Nozikbibi fiqrasida: “Hisor turklaridandur. Ma’lumki, shoir Sayqaliy ham turkiygo‘y edi” qismi tushib qolgan (№ 56, 150. № 56, 169).

13. Xon ning tavalludi va vafoti hijriy sanasi tushib qolgan: “1808-yil”, “Majburiy vafotiga hijriy ila 1250nchi sana bo‘ladur” (№ 57, 152. № 57, 170).

14. Abdulaziz Majzub fiqrasida shoir vafoti tushib qolgan: “1871-yilda Namangonda vafot etmishdur” (№ 62, 167. № 62, 187).

15. Komilning “qilmading” radifli 13 baytli g‘azali 5-bayti tushib qolgan:

Aylading mehr-u vafo bobida qaysi va’dalar,
Kim yana ul ahd-u paymondin pushaymon qilmading (№ 63, 171. № 63, 192).

Tazkirada xato berilgan ma’lumotlar

1. Mahviy 36-fiqrada berilgach, undan so‘ng, Gadoiyga alohida fiqra ajratilgan, biroq u raqamlanmagan. Nashrda ham xuddi shu holatda qoldirilgan (Q – 80. N – 93).

2. Bir qancha o‘rinlarda Amiriy tashabbusi bilan Fazliy, Mushrif, Fikriy va Xotiflar tomonidan tuzilgan tazkira nomi “Majmuatu-sh-shuaro” deb keltirilgan. Chunonchi, Fazliyga bag‘ishlangan fiqrani olaylik: “Bu kishi…Mirzo Qalandar Mushrif ila birgalikda “Majmuatu-sh-shuaro” nomli tazkiiraning vujudga chiqardilar” (№ 46, 111. № 46, 127). Aslida, tazkiraning nomi – “Majmuai shoiron”.

3. Nodirabegim vafoti: “Shunday shoira… Nasrullo tomonidan 1840-yilda shahid etildi”. Shoira 1842-yilda qatl etilgan (№ 53, 134. № 53, 151).

4. № 63-fiqra Komil Xorazmiyga bag‘ishlangan. Muallif ijodkorni Komil II deb nomlagan. Biroq, tazkirada undan oldin biror-bir Komil taxallusli shoir uchramaydi. A.Qayumov uni Komil deya to‘g‘rilab ketgan (№ 63, 170. № 63, 190).

Tabdilda xato berilgan ma’lumotlar

1. Fazliyga avlod shoirlarni berishda qo‘lyozmada “Bandazoda” taxallusi berilsa, nashrda “Bandazod” deyilgan. Aslida, qo‘lyozmadagi variant to‘g‘ri. “Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti”da ham “Bandazoda” deb keltirilgan (№ 46, 113. № 46, 129).

2. Nola I fiqrasida: “Roshidonli domulla Bokiy…”, - deyilsa, nashrda Boqiy deb keltirilgan (№ 47, 117. № 46, 133). Aslida, qo‘lyozmadagi variant to‘g‘ri. “Bokiy” – “yig‘lovchi”, “Boqiy” esa “abadiy mavjud” degani. Ya’ni, shoir o‘ziga aniq maqsad bilan tasavvufiy taxallus tanlagan.

3. Nodira fiqrasida: “Bunga etgan hurmatimiz va yana Maknuna, Uvaysiylarga hamdur”. Nashrda Maknuna so‘zi Mahzunaga o‘zgartirilgan (№ 53, 134. № 53, 151).

4. Shoira Nozik haqidagi faktlar olingan bayoz hijriy 1245nchi yilda amir Nasrulloning Xo‘qandga bosqini paytida muallifning ota-bobolari qo‘liga kelib qolgani aytilgan (№ 56, 149). Nashrda uning milodiy hisobi ham havola qilingan: 1829-1830 (№ 56, 168). Biroq, Nasrulloning Xo‘qand istilosi 1842-yilda amalga oshirilgan.

5. Shoira Nozik haqidagi bayoz xususida: “Qo‘lyozmalar institutiga 1955nchi yilda sotildi”,-deyilsa, nashrda: “Qo‘lyozmalar institutiga 1955nchi yilda berildi”ga o‘zgartirilgan (№ 56, 150. № 56, 169). Niyoziy I to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan bayoz borasida ham xuddi shunday qarama-qarshilik mavjud (№ 59, 160. № 59, 180).

6. Nozik fiqrasida uning turmush o‘rtog‘i Hislat to‘g‘risida gap ketkanda, qo‘lyozmada:“Sadriddin Ayniy o‘zbekcha she’ridan ko‘rsatmagan”,-deyilsa (№ 56, 150-151), nashrda: “Sadriddin Ayniy she’ridan ko‘rsatmagan” deya qayd etilgan (№ 56, 169). Ya’ni “Namunai adabiyoti tojik”da Hislatning tojikcha she’rlari berilgan, biroq o‘zbekcha she’rlariga o‘rin ajratilmagan. Nashrdagi ma’lumotdan kelib chiqib o‘quvchida tazkirada uning she’ri umuman keltirilmagan ekan degan tasavvur paydo bo‘ladi. Po‘latjon domla o‘z fikrini mustahkamlab yana qo‘shimcha qiladi: ““Tuhfatu-l-ahbob” sohibi ham tojikcha she’rlaridan namuna olmishdur” (№ 56, 151. № 56, 169).

7. Majzub soqiynomasi haqida: “Devonida bir ayrim soqiynomasi bordur. Bu esa, 180 betdan iboratdur”,-deyilsa, nashrda 181 bet deb berilgan (№ 62, 167. № 62, 187).

8. “Shoir Volaning nomi mulla Qurbonxon bo‘lub, Abdulvalito‘raning havlisinda bo‘lmish bir suhbatda ayon bo‘lishicha” jumlasida Abduvalito‘ra ismida Abduxoliq to‘ra deya tabdil qilib ketilgan (№ 65, 176. № 65, 200).

Akademik Azizxon Qayumov qo‘shib ketgan ma’lumot

1. Mansur Piskandiy vafoti: “Abjad hisobi ila olganda hijriy ila 1189 bo‘ladur”, - deyilsa (№ 36, 79), uning milodiy hisobi ham ilova qilingan: “1775-1776” (№ 36, 92).

2. G‘oziyning Amiriyga hasbi hol muxammasining birinchi bandi so‘nggi misrasi qo‘lyozmada tushib qolgan. A. Qayumov nashrda qo‘shib ketgan: “Ranj-u kulfatga yaqin, rohatga dur afgandiman” (№ 37, 85, № 37, 98).

3. Qiyosiy fiqrasida shoir Zokiriyning vafoti 1240-yil deyilgan. Nashrda uning milodiy hisobi ham berilgan: 1824-1825-yillar (№ 41, 98, № 41, 112).

4. Kaltatoyi fiqrasida: “Xon unga “a’yi Kaltatoyim” deb navozish etadurgan bo‘lgan. Shunga binoan shul qishloqning nomi “Kaltatoy” deb atalib, taxallus ham shul bo‘lgan. Shul nom hanuz davom etadur: Leningrod rayon Yov jamoasiga tobe’ Kaltatoy qishloq”. A. Qayumov bu hudud hozirda qaysi tumanda joylashganini ham aytib o‘tgan: “hozirgi Uchko‘prik” (№ 51, 129, № 51, 145).

5. Mahzuna fiqrasida: “Muhammadyusuf Muhammadsolih oxund devon Muhammadali yosh chog‘ida saroyda bo‘lgani, Mulla Boshmon bilan yondosh mahallada ekanidan Nodira esa Muhammadyusuf Muhammadsolih oxund devonga “mirzoyi zarrin qalam” unvoni(ni) bergani, bu fozil, husnixat, inshoga mohir zotga hurmat-e’tibori shunchaliq bo‘lgani holda shul joydagi bir shoiraning eshitmay, ko‘rmay qolmagandur”,-deyiladi (№ 54, 139). Nashrda Muhammadalixonning hokimiyat yillari ham berib ketilgan: “1822-1842-yillarda Qo‘qon xoni” (№ 54, 156). Biroq, Muhammadalixon 1822-1842-yillarda emas, 1822-1841-yillarda xonlikni idora etgan. 1841-yilda o‘z ukasi, Mahmud Sulton foydasiga taxtni topshirgan.

6. Niyoziy I. vafoti: “1272nchi hijriy yilida Xo‘tan shaharida vafot etmishdur”,-deyilsa, nashrda milodiy hisobi ham berilgan: 1855-1856 (№ 59, 160. № 59, 180).

7. Jaloliy vafoti qo‘lyozmada “hijriy ila 1261nchi yilda” deb qayd etilgan bo‘lsa, nashrda milodiy hisobini ham mavjud: “milodiy 1845” (№ 60, 161. № 60, 181).

8. Azimiy vafoti: “hijriy 1263-yil”ning ham milodiy hisobi chiqarib ketilgan: “1846-1847” (№ 61, 164. № 61, 184).

9. Majzub Namangoniy vafotiga (“hijriy1273-yilda”) nashrda: “milodiy 1856-1857-yillar” ham qo‘shimcha qilingan (№ 62, 168. № 62, 188).

Qo‘lyozma va nashrdagi uslubiy g‘alizliklar

1.	*“Muyassar et, iloho, seg‘an o‘zing, ul joyi a’log‘a”.*	“Muyassar et, ilohi, sen o‘zung, ul joyi a’loga”.	№ 36, 80.	№ 36, 93.
2.	“Kamandi xayoli rasodur oning”.	*“Kamandi hayoli rasodur aning”.*	№ 37, 81.	№ 37, 94.
3.	“Ko‘ngil ko‘rgach yuzingni, mayl gulzori Eram qilmaz”.	*“Ko‘ngul ko‘rgach yuzingni, mayli gulzori iram qilmaz”.*	№ 37, 81.	№ 37, 94.
4.	“Ko‘zim yoshi ko‘yin tufrog‘ini behuda nam qilmaz”.	*“Ko‘zim yoshi kuyin tufrog‘ini behuda nam qilmaz”.*	№ 37, 82.	№ 37, 94.
5.	“Sen aytgan ishni “bo Alloh” hech rahboni sanam qilmaz”.	*“Sen etgan ishni bilmoq hech rahboni sanam qilmaz”.*	№ 37, 82.	№ 37, 95.
6.	“Bo‘lma komi nafs uchun har siflaning oldida xam”.	*“Bo‘lma komi nafs uchun har siflaning oldida ham”.*	№ 37, 82.	№ 37, 95.
7.	“To muyassardur jahon ahliga manzur o‘lmog‘il”.	*“To muyassardur jahon ahliga maxmur o‘lmog‘il”.*	№ 37, 82.	№ 37, 95.
8.	“Mubtaloyi dardi bedarmona kofur o‘lmog‘il”.	*“Mubtaloi dardi badarmona kofur o‘lmog‘il”.*	№ 37, 82.	№ 37, 95.
9.	“Bundan ortuq na emish hashmat-u davlat angakim”.	*“Bundan ortuq na emish hashmat-u davlat anga kam”.*	№ 37, 83.	№ 37, 96.
10.	“Ketdilar ozodalar g‘am birla nokas bu kas”.	*“Ketdilar ozodalar g‘am birla nokas bo‘ldi kas”.*	№ 37, 85.	№ 37, 99.
11.	“G‘am yukin tortib, alif qaddim	*“G‘am yukin tortib, alif qaddim*	№ 37, 85.	№ 37, 99.

	egildi misli nun”.	*etildi ismli nun”.*		
12.	*“Noshinolar ko‘ziga bu dudai darbandiman”.*	“Noshino(s)lar ko‘ziga bu dudai darbandiman”.	№ 37, 85.	№ 37, 99.
13.	*“Bandai davron bori Shirin kamolidur mango”.*	*“Bandai davron bori Shirin kalomidur mango”.*	№ 38, 87.	№ 38, 101.
14.	*“So‘zda hosil sharbati yuhyiga Rumiydur mango”.*	“*So‘zda hosil sharbati yuh’yil-izomiydur mango*”.	№ 38, 87.	№ 38, 101.
15.	*“Hofizi Sheroz lutfidin taraqqiylar topib”.*	“*Hofizi Sheroz nazmidin taraqqiylar topib*”.	№ 38, 87.	№ 38, 101.
16.	*“Fayz Firdavsiy gahi ko‘nglim ochib Firdavsiydek”.*	“*Fays firdavsi gahi ko‘nglum ochib Firdavsiydin*”.	№ 38, 87.	№ 38, 101.
17.	“Bizki, besh kun mehmonmiz, ey falak, qasring aro”.	*“Biz-ku, besh kun mehmonmiz, ey falak, kasring aro”.*	№ 38, 88.	№ 38, 102.
18.	“Hajringda bedimog‘liq etsam ne aybkim”.	*“Hajringda bedumog‘liq etsam nasiybkim”.*	№ 38, 89.	№ 38, 104.
19.	*“Zarrin kamarga mo‘yi miyoning qo‘pog‘lanib”.*	“Zarrin kamarga mo‘yi miyoning qurog‘lanib”.	№ 38, 90.	№ 38, 105.
20.	*“Har nechakim quvuvlasa, qopungdin toyog‘lanib”.*	“Har nechakim quvlasa, qopungdin toyog‘lanib”.	№ 38, 90.	№ 38, 105.
21.	“Xalq orosinda “Eshon bog‘dor bobo” deb mashhurdir”.	*“Xalq orosinda Eshon bobo bog‘dor bobo deb mashhurdir”.*	№ 39, 90.	№ 39, 105.
22.	“Oldig‘a yoqin borg‘il, albatta, qabob aylar”.	*“Oldig‘a yoqin borg‘an, albatta, qabob aylar”.*	№ 39, 92.	№ 39, 107.
23.	“Erur sargashtai maqsudi iymon yor gisuyi”.	*“Erur sargashtam maqsudi iymon yor gisuyi”.*	№ 40, 94.	№ 40, 109.
24.	“Bel-u og‘zi xayolin mug‘tanim bo‘lg‘oysen, ey ko‘nglim”.	*“Bel-u og‘zi xayolin mug‘tanim bo‘lmaysen, ey ko‘ngil”.*	№ 40, 94.	№ 40, 109.
25.	“O‘limdin ham erur dushvorroq rashk o‘ti oshiqg‘a”.	*“O‘lumdin ham erur sho‘rroq rashk o‘ti oshiqg‘a”.*	№ 40, 95.	№ 40, 109.
26.	“Boqib ag‘yorg‘a bu xasta afgoringni kuydirma”.	*“Boqib ag‘yorg‘a bu xasta afkoringni kuydirma”.*	№ 40, 95.	№ 40, 109.
27.	*“Mahvashekim jilvasi barq-u so‘zi bir shu’ladur”.*	“Mahvashekim jilvasi barq-u yuzi bir shu’ladur”.	№ 40, 97.	№ 40, 111.
28.	Bir qo‘lyozmada nomi Muhammad Aminxo‘ja deb ko‘rsatilmishdur	*“Bu qo‘lyozmada nomi Muhammad Amin Xo‘ja deb ko‘rsatilmishdur”.*	№ 41, 98.	№ 41, 112.
29.	“Haq tajalliyotidin vahdat xumidek urdi jo‘sh”.	*“Haq tajalliyotidin vahdat xumodek urdi jo‘sh”.*	№ 41, 98.	№ 41, 112.
30.	“Ne munosib sen kabi yaxshig‘a bu kor, aylanoy”.	*“Ne munosib sen kabi yaxshig‘a bir kor, aylanay”.*	№ 41, 100.	№ 41, 114.
31.	“Ki shoyad rahm aylab, onglag‘oy nomimni fahvosi”.	*“Ki shoyad rahm aylab, anglagay nomimni ig‘vosi”.*	№ 42, 101.	№ 42, 115.
32.	“Bu jonim pora-pora shona yonglig‘ chok o‘lur har dam”.	*“Bu jonim pora-pora shona yonglig‘ sok o‘lur har dam”.*	№ 42, 101.	№ 42, 115.
33.	“Ko‘ngilg‘a toza-toza dog‘ to‘ldi sarvqadlardin”.	*“Ko‘ngilg‘a toza-toza dog‘ to‘ldi sarvqandlardin”.*	№ 42, 101.	№ 42, 115.
34.	“Bayzasidin so‘ng daf-u nay nola barpolanmosun”.	*“Bayzasidin so‘ng daf-u nay nola barolanmasun”.*	№ 42, 101.	№ 42, 115.
35.	“Zulayho imtisholim Misri davlat uzra ul shohkim”.	*“Zulayho imtasolim Misri davlat uzra ul shohkim”.*	№ 42, 102.	№ 42, 117.
36.	“Junun tumoridin da’f o‘ldi osori malolimkim”.	*“Junun tumoridin da’f o‘ldi osori mahri kim”.*	№ 42, 102.	№ 42, 117.

37.	“Kezib dashti junun chektim jafo-u javr emgaklar”.	*“Kezib dashti kunun chektim jafo-u javr emgaklar”.*	№ 42, 103.	№ 42, 118.
38.	*“Suxan zug‘rosi ermish, osmon lavhiga zabt etgan”.*	“Suxan tug‘rosi ermish, osmon lavhiga zabt etgan”.	№ 42, 104.	№ 42, 119.
39.	*“Mavlono Ravnaq turkiy va forsiy ash’or ega egasi shoirdur”.*	“Mavlono Ravnaq turkiy va forsiy ash’orlar egasi shoirdur”.	№ 43, 104.	№ 43, 119.
40.	“Bu kishining o‘g‘li bo‘lub, bular ham shoirlardur”.	*“Bu kishining o‘gli bo‘lib, bu kishi ham shoirdurlar”.*	№ 43, 104.	№ 43, 119.

Tabdil va nashrdagi imloviy farqlar

T/r.	Qo‘lyozmadagi variant	Nashrdagi variant	Qo‘l.fiqrasi va sahifasi	Nashr fiqrasi va sahifasi
1.	Fazliy	Fazlii	№ 35, 78.	№ 35, 91.
2.	“Majmuatu-sh-shuaro”	“Majmuotu-l-shuoro”	№ 35, 78.	№ 35, 91.
3.	Xo‘qandga	Ho‘qanda	№ 35, 78.	№ 35, 92.
4.	mazharulloh	mazhari olloh	№ 35, 79.	№ 35, 92.
5.	na’sh-u namo	na’sh-u noma	№ 36, 79.	№ 36, 92.
6.	ma’lumdur	maelumdur	№ 36, 79.	№ 36, 92.
7.	jovudoni	jovdoni	№ 36, 80.	№ 36, 93.
8.	“Majolisu-n-nafois”	“Majolis ul-nafoyis”	№ 37, 80.	№ 37, 93.
9.	1817nchi yilga	1817 yilga	№ 37, 81.	№ 37, 94.
10.	Eram	Iram	№ 37, 81.	№ 37, 94.
11.	tingla	tiingla	№ 37, 82.	№ 37, 95.
12.	Chiniyi Fag‘fur	chiniyyu fag‘fur	№ 37, 82.	№ 37, 95.
13.	shoir	–	№ 37, 83.	№ 37, 96.
14.	qatrafshon	qatra fishon	№ 37, 83.	№ 37, 96.
15.	hur	ur	№ 37, 83.	№ 37, 96.
16.	labo-lab	lbolab	№ 37, 83.	№ 37, 96.
17.	bexirad	bextrad	№ 37, 83.	№ 37, 96.
19.	xating	xatingi	№ 37, 84.	№ 37, 98.
20.	monandi	monanda	№ 37, 85.	№ 37, 99.
21.	bu	–	№ 37, 85.	№ 37, 99.
22.	shukrulloh	shukri lilloh	№ 37, 85.	№ 37, 99.
23.	ishtig‘ol	ishtiqol	№ 38, 86.	№ 38, 100.
24.	*atirparvar*	*atrparvar*	№ 38, 87.	№ 38, 101.
25.	*homiydur*	*xomiydur*	№ 38, 87.	№ 38, 102.
26.	kufri zulfin	kufr, zulfin	№ 38, 88.	№ 38, 103.
27.	xoring	horing	№ 38, 89.	№ 38, 103.
28.	ilhoming	ilhoning	№ 38, 89.	№ 38, 103.
29.	agarchi	garchi	№ 38, 89.	№ 38, 103.
30.	gisuyi	gisuiy	№ 38, 89.	№ 38, 104.
31.	qirg‘og‘da	qirg‘oqda	№ 38, 89.	№ 38, 104.
32.	o‘ldurodursen	o‘lduradurchsn	№ 38, 89.	№ 38, 104.
33.	shoirlardan biridur	shoirlardandur	№ 39, 90.	№ 39, 105.
34.	o‘rugzorlar	o‘rikzorlar	№ 39, 91.	№ 39, 105.
35.	qat’iy nazar	qan’i nazar	№ 39, 91.	№ 39, 106.
36.	yaloshurlar	yaloshdurlar	№ 39, 91.	№ 39, 106.
37.	shayx	shayh	№ 39, 91.	№ 39, 106.
38.	ila	–	№ 40, 93.	№ 40, 107.
39.	Muhammadya’qubdan	Muhammad Ya’kubdan	№ 40, 93.	№ 40, 108.

40.	tutolmoymiz	tutaolmaymiz	№ 40, 94.	№ 40, 109.
41.	shoirligi	shoirlgi	№ 40, 94.	№ 40, 109.
42.	muhabbat	muhabbt	№ 40, 94.	№ 40, 109.
43.	Falotun	Filotun	№ 40, 95.	№ 40, 110.
44.	Navoiyning	Navoiy	№ 40, 95.	№ 40, 110.
45.	tabbaro	tabirro	№ 40, 96.	№ 40, 110.
46.	jihatdin	jihattin	№ 40, 96.	№ 40, 110.
47.	zarraoti	zarrioti	№ 40, 96.	№ 40, 110.
49.	furqatingdin	firqatingdin	№ 40, 96.	№ 40, 110.
50.	nobing	nobng	№ 40, 97.	№ 40, 111.
51.	xirom	hirom	№ 40, 97.	№ 40, 111.
52.	namangonli	Namangonli	№ 41, 98.	№ 41, 112.
53.	Besutun	Bestun	№ 42, 101.	№ 42, 115.
54.	muddavosi	modavosi	№ 42, 101.	№ 42, 115.
55.	shoyad	shoid	№ 42, 101.	№ 42, 116.
56.	g‘ayri	g‘ayra	№ 42, 101.	№ 42, 116.
57.	mo	–	№ 42, 101.	№ 42, 116.
58.	parvonadek	parvondek	№ 42, 102.	№ 42, 116.
59.	gulfom	gulfot	№ 42, 102.	№ 42, 117.
60.	naxli	nahli	№ 42, 103.	№ 42, 118.
61.	fahm	faxm	№ 42, 103.	№ 42, 118.
62.	zahmlarda	zaxmlarda	№ 42, 103.	№ 42, 118.
63.	xayolim	hayolim	№ 42, 104.	№ 42, 118.
64.	imtihon	imtixon	№ 42, 104.	№ 42, 119.
65.	diydorman	didorman	№ 43, 104.	№ 43, 119.
66.	hayhotkim	hayxotkim	№ 43, 104.	№ 43, 119.

Tazkira yozilishida tushirib qoldirilgan misra bayt va bandlar

1. Munisning “shuaro” radifli g‘azali ikkinchi bayti (№ 38, 88. № 38, 102):

Yerga xurshiddek solur davron,
Qilsalar sayri osmon shuaro.

2. Nodiraning “Yordin qoldi chaman sarsabz-u xandon o‘lmasun…” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalining atigi ikki bayti (birinchi va uchinchi baytlari) keltirilgan. Oradagi quyidagi ikkinchi bayt tushib qolgan (№ 53, 136. № 53, 153):

Bo‘lmasun gul ko‘ksini ochib chamanda jilvagar,
Toki guldek hosilim choki giribon o‘lmasun.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Tazkirai Qayyumiy” unikal ma’lumotlar bera olishi bilan adabiyotshunoslik fanida muhim manbalardan biridir. Qo‘lyozma va nashr o‘rtasida farqli jihatlar talaygina. Ularning matniy-qiyosiy tadqiqini amalga oshirish zarur. Qolaversa, tazkirada keltirilgan shoirlarning she’rlari matnini ushbu shoirlarning devon, hamda to‘plamlaridan joy olgan variantlari o‘rtasida matniy-qiyosiy tadqiqini amalga oshirish ham matnshunoslik va adabiy manbashunoslik sohasi vakillari oldida turgan galdagi vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Po‘latjon domulla Qayyumiy. Tazkirai Qayyumiy (qo‘lyozma), 1960. – T.: O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi qo‘lyozmalar fondi, № 734.
2. Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy (nashrga tayyorlovchi A. Qayumov). – T.: O‘zR FA Qo‘lyozmalar instituti tahririy nashriyot bo‘limi, 1998. – 712 b.
3. Qayyumov P. Xo‘qand tarixi va uning adabiyoti (nashrga tayyorlovchi Qayumov A.). – T.: Tamaddun, 2011. – B. 377.
4. Boltaboyev H. Tazkiralar zikri. – T.: Mumtoz so‘z, 2015. – B. 261.
5. Qayyumov P. D. Tazkirat ush-shuaro. 1-kitob – Toshkent: O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi, 2006. – B. 176 .
6. Qayyumov P. D. Tazkirat ush-shuaro. 2-kitob – Toshkent: O‘zR FA Davlat adabiyot muzeyi, 2006. – B. 182.
7. Boltaboyev H. Turkiy tazkiralarda Alisher Navoiy siymosi // https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/hamidulla-boltaboev-turkiy-tazkiralarda alisher-navoiy-siymosi/
8. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – B. 264.